

20-Aprel, 2025-yil

MAQOM SAN’ATINING RAVNAQI: ZAMONAVIY BOSQICHDA

Respublika musiqa va san’at texnikumi

Azimov Alisher

Fayziyeva Lobar

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’zbek milliy maqom san’atining zamonaviy bosqichdagi rivojlanish tendensiyalari, an’anaviy ijrochilik maktablarining ahamiyati va ularni bugungi yoshlar orasida targ’ib etish masalalari yoritilgan. Maqolada maqomlarning hududiy xususiyatlari, ansamblli ijro shakllari va zamonaviy musiqa ta’limi bilan uzviy aloqasi tahlil qilinadi. So‘zandachilik matabining ustoz-shogirdlik asosidagi an’analari asosida shakllangan ijrochilik uslublari, ularning bugungi musiqa amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida muhim fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: maqom san’ati, ijrochilik, ustoz-shogird an’anasi, xalq musiqasi, Shashmaqom, ansamblli ijro, musiqa ta’limi

Maqom san’ati asrlar davomida o’zbek xalqining ma’naviy-madaniy hayotida muhim o‘rin egallab kelgan noyob san’at turlaridan biri bo‘lib, uning bugungi kunda yangi bosqichda rivojlanayotgani e’tiborga loyiq jarayondir. Ayniqsa, Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohaning taraqqiyotida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu tarixiy hujjat asosida 2018 yildan boshlab har ikki yilda Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati anjumani o’tkazilishi belgilangan bo‘lib, bu esa maqomning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, 2018 yil 6 aprelda imzolangan “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o’tkazish to‘g‘risida”gi qaror esa bu yo‘nalishdagi amaliy ishlarning izchil davom ettirilishini ta’minladi.

Maqom san’atining ildizlari chuqur tarixiy qatlamlarga borib taqaladi. Ayniqsa, XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida ushbu san’at turi xalq musiqasi bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, o’zbek musiqa madaniyatining serqirra va betakror ko‘rinishlarini yuzaga keltirdi. Turli xonliklarda shakllangan mahalliy musiqiy maktablar, cholg‘ular va uslublar maqomning rang-barangligini ta’milagan bo‘lsa, og‘zaki ijrochilik an’anasi uning asliyatini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Bugungi kunda ana shu tarixiy merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, maqom san’atining zamonaviy bosqichdagi ravnaqi nafaqat madaniy, balki ilmiy va amaliy jihatdan ham keng yondashuvni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O’zbek musiqa san’ati taraqqiyoti va ayniqsa maqom ijrochiligi an’analari haqida yozilgan ilmiy-adabiy manbalar ushbu sohaning ildizlari, shakllanish bosqichlari hamda ijro maktablari haqida boy ma’lumotlar beradi. Maqom san’atining taraqqiyotida “ustoz-shogird” an’anasining hal qiluvchi o‘rin egallaganligi adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi. Bu

20-Aprel, 2025-yil

an’ana og‘zaki tarzda, ya’ni avloddan-avlodga o‘tib kelgan sozandalik tajribasining davomiyligini ta’minlagan. Shu sababli maqom cholg‘u ijrochiligi bizgacha yozma emas, balki og‘zaki, amaliy yo‘l bilan – ya’ni mahoratni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ustozdan o‘rganish orqali yetib kelgan.

Akademik va amaliy manbalar, jumladan, o‘zbek musiqa folkloriga oid tadqiqotlar, maqom san’ati bo‘yicha yozilgan fundamental asarlar, bu jarayonni chuqur tahlil qilgan. Ularning aksariyatida cholg‘u ijrochiligining an’anaviy yo‘llari, ularning ustozlik maktablari orqali rivojlanib borganligi haqida so‘z yuritiladi. Har bir musiqachining o‘z ustozidan ta’lim olishi, sozandachilik sirlarini unga ergashib, tinglab, amalda bajara turib o‘rganishi – bu san’atda mukammallik sari eng asosiy yo‘l sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatdan, ijro mahorati, ijodiy tafakkur va musiqiy estetikani uyg‘unlashtirgan bu tajriba har qanday musiqa maktabining tamal toshi hisoblanadi.

Adabiy manbalarda, shuningdek, musiqiy salohiyati bo‘lmagan kishilarining bunday og‘ir, mas’uliyatli san’atga qadam qo‘ymagani, aksincha, iste’dod egalari qat’iy mehnat, intilish va ustozga bo‘lgan sadoqat orqali shu maqomga erishganligi haqida fikrlar uchraydi. Bu jihatlar qadimiy xalqimiz musiqiy madaniyatining chuqur ma’naviy asoslarga tayanganligini anglatadi. Zero, sozandachilik – bu faqat texnik bilim emas, balki butun borliqni, tuyg‘u va ruhiyatni musiqa vositasida ifodalash san’atidir⁸.

Ko‘plab adabiyotlarda o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy musiqiy merosi – maqomlar, xalq kuylari, bayramona kuylar, dorbozlik, raqs va ko‘g‘irchoqbozlik kuylarining shakllanishida ana shu og‘zaki an’analarning beqiyos o‘rni e’tirof etiladi. Bu kuylar ham ijrochilik amaliyotida avloddan-avlodga uzatilgan, jamiyat hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq holda boyigan.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, milliy musiqa an’analari xalqimizning tarixiy, ma’naviy va estetik qarashlarini mujassam etgan. Shu sababli bu an’analarni chuqur o‘rganish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish, yosh avlodga o‘rgatish bugungi globallashuv sharoitida ayni dolzarb masala hisoblanadi. Jahon xalqlari madaniyatlari bir-biriga tobora yaqinlashib borayotgan bir davrda, o‘z milliy musiqiy merosini asrab-avaylash, uni yangicha ma’no va shakllar bilan boyitib rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy adabiyotlarda keng ko‘lamda tahlil qilinmoqda. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar maqom ijrochilagini nafaqat san’at sohasi, balki o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yoritadi. Ushbu manbalar orqali biz milliy musiqa san’atining avlodlar davomida qanday saqlanib qolganini, qanday shakllar va uslublar orqali rivoj topganini anglaymiz. Ana shu adabiy asoslar bugungi kunda maqom san’atini chuqur o‘rganish va zamonaviy bosqichda uni rivojlantirishda mustahkam ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin:

⁸ Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi. (I-V) Tos’hkent. 1965

20-Aprel, 2025-yil

1. Ijro an'analarini chuqur o'rganish – Har bir musiqiy yo'nalishda, xususan maqom san'atida mavjud bo'lgan ijro uslublarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish yosh ijrochilarning san'atga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi.

2. Ustoz-shogirdlik tizimini mustahkamlash – An'anaviy ustoz-shogird matabining zamonaviy ta'lif tizimi bilan uyg'unlashtirilgan shakllarini yaratish, iqtidorli yoshlarni aniqlab, ularga mahoratli ustozlar rahbarligida ta'lif berishni yo'lga qo'yish lozim.

3. Ashula va cholg'u namunalarning targ'iboti – Mumtoz ashulalar va xalq og'zaki ijodi namunalarini darsliklar, ovozli yozuvlar, sahna ko'rinishlari va boshqa zamonaviy usullar orqali yoshlar orasida keng targ'ib qilish tavsiya etiladi.

4. Madaniyat markazlari faoliyatini kuchaytirish – Maqom san'atiga ixtisoslashgan ta'lif va madaniyat muassasalarining faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni ilmiy-metodik bazalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – O'zbek maqom san'atini jahon sahnasiga olib chiqish uchun xalqaro festival, tanlov va simpoziumlarda faol ishtiroy etish, tarjima va nashrlar orqali madaniy almashinuvni rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, maqom san'atining zamonaviy bosqichdagi ravnaqni nafaqat musiqa sohasi mutaxassislarining, balki butun jamiyatning e'tiborida bo'lishi kerak bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy masaladir. Shu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy ishlar esa milliy merosimizning bardavomligini ta'minlovchi muhim omillardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning ta'rixi. - Tos'hkent: Fan, 1993
2. Matyoqubov O. Maqomot T.,2004
3. Matyoqubov O.,Boltayev R.,Aminov H. O'zbek notasi(Xorazm tanbur chizig'i asosida Dutor maqomi namunalari) T.,2009
4. R.Qosimov - An'anaviy rubob ijrochiligi O'zbekiston 2000.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O'bek xalq muzikasi.(I-V) Tos'hkent. 1965
7. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi II-qism. T., 2000
8. Yunusov R. S'harq xalqlari maqomlari T.,2022